

## EL XOTIRASIDAGI INSON.

Ibragimova Dilafruz

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi.  
Jizzax shahri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13941774>

*Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchisining yodlagan she'ri bilan boshlanadi. Atoqli davlat arbobining mamlakatimiz uchun qilgan ishlari xalq yodida va xotirasida qolganligi, ulkan vazifalarning amalga oshirishi esa inson ko'z o'ngida, umr yo'lida bajarilishi, sobiq tuzum davri bo'lsada, ikkilanmay qilingan harakatlar davr mo'jizasi deya tilga olingan.*

Lekin "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" deya o'zbek xalqi ustidan qilingan ayblovlar, Sharof Rashidovni nomini ham qora qilgan jarayonlar, mustaqillikka erishish arafasida qayta ko'rib chiqlish va oqlaninishi haqida ham so'z borgan. Sharof Rashidovning ijodiga keladigan bo'lsak o'z ijodida hurlikni madh etganligi, Vatanga muhabbat va Xursanoy onaga bo'lgan hurmat va sevgisi madh etilgani haqida aytildi. Maqola so'ngi xalq hurmat bilan yakunlangan

**Kalit so'zlar:** She'r, jasorat, lider, xotira, hur ijod, notinch, ziynat, plan.

### A PERSON IN THE MEMORY OF THE COUNTRY.

*Abstract. This article begins with a poem memorized by an elementary school student. The actions of a statesman famous for our country remain in the people's memory, and the implementation of great tasks is accomplished before the eyes of a person, throughout his entire life. But there was also talk about accusations against the Uzbek people, called the "cotton case", "the Uzbek case", processes that denigrated the name of Sharof Rashidov. As for the work of Sharaf Rashidov, they say that in his work he praised honor, love for the Motherland, respect and love for his wife Khursana. The article ends with respect to the people.*

**Keywords:** Poetry, courage, leader, memory, free creativity, restless, ornament, plan.

### ЧЕЛОВЕК В ПАМЯТИ СТРАНЫ.

**Аннотация.** Эта статья начинается со стихотворения, выученного наизусть учеником начальной школы. Деяния известного для нашей страны государственного деятеля остаются в народной памяти, а реализация великих задач совершается на глазах человека, на протяжении всей жизни. Но были разговоры и об обвинениях в адрес узбекского народа, названных «хлопковым делом», «делом узбеков», процессах, очернивших имя Шарофа Рашидова. Что касается творчества Шарафа Рашидова, то говорят, что в своем творчестве он восхвалял честь, любовь к Родине, уважение и любовь к супруге Хурсаной. Статья заканчивается с уважением народа.

**Ключевые слова:** Поэзия, смелость, лидер, память, свободное творчество, неугомонный, орнамент, план.

Inson tajribasi inson bilan birga olamdan o'tadi, inson tafakkuri inson bilan birga zavol topadi. Zero umr bebaqodir. Zakovatning ibtidosi – xalq dilida, el xotirasidadir

**Sharof Rashidov**

Eslayman yosh o'quvchi edim ustozimiz shoir Muhammad Yusufning - **ruhi notinch zot** so'zlari bilan bitilgan (*Bag'ishlov deb nomlangan*) she'rini bir nechta o'quvchilarga yodlash uchun berdi. Albatta men ham to'rt qatorini aytish uchun tanlandim, hali O'zbekistonimiz

mustaqillikka erishmagan (**mustaqil O'zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimovning O'zbekiston kompartiyasining birinchi sekretarligiga endi tayinlangan paytalarida Sharof Rashidov nomini oqlagan va paxta ishini qayta ko'rib chiqqan** – “O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida”) davrlari edi. Biz she'r yodlovchi o'quvchilar qandaydir tadbirga tayyorgarlik ko'rayotgan edik. Chamamda men uchinchi sinfda o'qirdim shuning uchun hozir o'sha kungi tadbirni nima haqida ekanligini eslolmayman. Bu she'r yillar o'tib shahrimizdagi Sharof Rashidov muzeyiga kirganimda 1959-1983-yillar O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimida faoliyat yuritgan Jizzax shahrining ijodkor va siyosatchi o'g'loni Sharof Rashidov haqida ekan. She'r satrlaridagi og'ir va o'kinchli so'zlar u insonning o'limidan so'ng qilingan bo'xtonlar, tuhmat-u malomatlar sababi ekan. Sharof Rashidovni bilgan kishi jasoratli inson edi deya oladi. Uning mamlakatimiz uchun qilgan ishlari, yurt istiqboliga mo'ljallangan keng ko'lami iqtisodiy siyosat namunasi bo'lgan. Jasorat insonning kundalik hayotida doim ham ko'rsatiladigan jarayon emas, lekin Sharof Rashidov yashagan davrlar inson irodasi sinovda va bu sinovlardan har kim ham o'tishga o'zida shijoat topa olmagan davrlar edi.

**Russiya tunidek qorong'i qafas.**

**Unda payxon umr, bo'lmas hur nafas.**

**Qafasda yotardi erk istar ko'ngil,**

**Ming alam o'tida yonar edi dil..**

**deya o'z ijodida keltirgan misralar garchi N.G.Chernishevskiyga** bag'ishlangan bo'lsada, haqiqat ahyonda yuz ko'rsatib o'tadi. Sharof Rashidov Sovet ittifoqining eng turg'un davridagi uyg'oq siyosatchisi, xalqiga suyangan, sevgan hamda ardoqlagan rahbari bo'lib, xalq hayotini yaxshilash, turmushini farovonligi birday o'ylab yashash uning rejalaridagi ustuvor yo'naliishlar edi, garchi Sovet tuzumida inson qadr-qimmati qonunlarida ko'ringani bilan amalda boshqa bo'lganligi, markazga bo'ysingan ittifoqchi davlat ekanlimizdan yaqqol bilinardi. Sobiq tuzumning paxta yetishtirish bo'yicha "plani" bor ediki, bunda yurtimizning paxta ekinlari plantatsiyasiga aylanib borishi, borgan sari yurt rahbarini ham og'ir majburiyatlar bosimiga oldi.

Tarix bo'yicha falsafa doktori Feruza Izzatning "Qurultoy" loyihasidagi suhbatida, - "**1974-yilda O'zbekiston 5 million tonna paxta topshirib, "plan"ni ortig'i bilan bajaradi. 1976-yilda Toshkentda kompartiya syezdi bo'lgan va o'sha yerda Rashidov:** "Bundan buyog'iga har yili 5 million tonna paxta beramiz, 1983-yilga chiqib, 5,5 million tonnaga chiqaramiz", degan paytda Brejnev ham majlisda bo'lgan va Rashidovga "Undan ham ko'paytirishning iloji yo'qmi? 6 million tonna qila olmaysizlarmi?", deb so'ragan. Sharof otaning "harakat qilamiz" deb aytgan, bu davrlarda yo'q deb aytib ham bo'lmas edi. Hamma narsani boshlab bergen paxta yetishtirishdagi mehnatga tuhmat balosini ortirilishi kimning ham tushiga kiribdi. Xalq ardog'idagi insonning tuhmatlar girdobida qolishi esa markazdagi hukumat boshliqlarining fitnasi bo'ldi

**Bu shunday bevafo dunyo, bu hayot,**

**Tunda tug'ishganing tongda yetti yot.**

**Balki taqdir shudir, balki shu qismat,**

**Bizdan rozi bo'ling ruhi notinch zot. (M.Yusuf)**

Tadbirimizga qaytadigan bo'lsak biz bu she'rni jarangdor ovozimiz bilan aytib tomoshabinlarni gulduros qarsaklari ila sahnadan chiqdik, bu gulduros qarsaklar xalqning she'r

egasiga bag'ishlangan hurmati va e'tibori edi. Sharof Rashidovning oqlanishi va o'zbeklar ishi bo'yicha qamoqqa olingan boshqa insonlarning O'zbekistonga qaytarilish jarayoni bo'lgan ekan o'sha paytalar.

**Sizni alqaganlar bir xalq, bir dengiz**

**Sizni qarg'aganlar jo'ralarinigiz.**

**Sizni ado qildi to'ralarinigiz,**

**Bizdan rozi bo'ling ruhi notinch zot. (M.Yusuf)**

Sharof Rashidovning umr yo'llarini kuzatar va o'rganar ekanmiz tinchlikni sevishini 1960 yildagi Hindiston–Pokiston o'rtasidagi “Toshkent diklaratsiyasi”da, do'stlikni ulug'lashini esa 1962- yil Karib orollari inqirozi paytida Fidel Castro bilan olib borgan muzokaralarida ko'ramiz.

San'atni sevishini dunyo kinofetevallarini tashkil etilishida, tabiatni sevishi esa Zomin sanatoriyasini qurilishi-yu, Namangandagi gullar bayramidagi noyob did va nafosat egasi ekanligini bilamiz. Inson umri barakasi shudirki, shaharlar barpo etilishi, metropolitenlarni qurilib ishga tushishidagi bunyodkorlik, cho'llarni o'zlashtirishdagi iqtidori bilan paxta maydonlari va aholi yashash punktlarining kengayishi va zavod fabrikalar, kosmos stansiyalarning barpo etilishi, bir kishi umri davomidagi kashfiyat yoki mo`jiza deyish mumkin. Markaziy Osiyodagi hududlar ichida faqatgina Toshkent shahridagina metropoliten Yerosti transporti mavjud. Buning islohotchisi Sharof Rashidovdir, 12,2 kilometr bo'ylab to'qqizta bekatdan tashkil etilishida o'zi bosh qosh bo'ldiki, vaqtlar o'tib biror bekatda u insonning nomi bilan atalgan bekat yo'qligi andak xafa ham qiladi kishini.

Inson iqtidorli va tadbirdik bo'lsa harakatlari zoye ketmas ekan. Albata bu ishlar zamirida xalq xizmati va mehnati yotadi, adolatli lider bu mehnatlarning qadriga yetadi, Butun O'zbekiston xalqini o'z og'a-inisidek, opa-singlisidek ko'rgan davlat boshlig'i hech bir davr xalqining yodidan chiqmaydi.

Sharof Rashidovning adabiyotga bo'lgan mehri beqiyosligini qalamiga mansub she'ridam misra keltirganimizdan bilsa bo'ladi. **Urush yillaridagi she'rlarida charos ko'z, shirin so'z, hayot ziynati, aziz dildorasi kuylanardi. Bu haroratlari satrlar sevgilisi dilbari- onamiz Xursanoya bag'ishlanadi.** Muhabbat va yorga bo'lgan hijron insonni og'ir paytlarada ham yashashga umid bag'ishlaydi. Shoirqalb insonning urush va diydor o'rtasidagi she'rlarida muhabbatga ilhaq, ayriliqdan qo'rquvi sezilib turadi. Ikkinci jahon urushi ishtirokchisi bo'lgan bu ijodkor ehtimol dushmaniga nafrat va g'alabadan umid tuyg'ulari birlashib ijod mahsullarini “Qahrim”, “G'oliblar”, “Bo'rondan kuchli”, “Qudratli to'lqin” deb nomlangandir. Haqiqat shuki, urushni ko'rgan, dunyoqarashi yanada teranlashgan yosh ijodkor Vatan va xalq oldida yanada shijoat bilan mehnat qiladi. Samarqand viloyati partiya tashkilotining kotibi faoliyatidan boshlab to 1959 yil 15-mart kuni O'zbekiston Kommunistik partiyasining Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi lavozimiga saylanguniga qadar va davlat rahbari bo'lib ham ijodini to'xtatmadı.

Xalqimizning biror kishisi yo'qliki, Sharof Rashidov haqida eshitganda yuziga iliqlik yugurmasa, Sharof otani tanimasa, bilmasa, kim?- deya savol beradigan kishining o'zi yo'q!

Barchaga birdek tanilgan va unitilmagan inson u. Viloyatimizda uning nomida tuman, shoh ko'cha, sanatoriya, eski shahar markazida qad ko'targan muazzam haykali va u insonni yodga soluvhi muzeylear mavjud. Meni esa doim o'sha boshlang'ich sinf o'quvchisi ekanligimdagи she'rim yodimga tushaveradi. **Bizdan rozi bo'ling ruhi notinch zot..**

Endi ruhingizga bering halovat  
Siz ahir bir yurtga bo‘ldingiz davlat,  
Ortingizdan duolar etay tilovat  
Xotirangiz mangu qalblarda abad (muallifdan)

**Xotira – zakovat tamali, uning negizidir.**  
**Sh. Rashidov**

## REFERENCES

1. I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat yengimas kuch. Ma’naviyat nashriyoti. 2008-yil
2. I.Karimov. O’zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. Toshkent. “O’zbekiston” 2011
3. Rashidov Sh. Erk istar ko‘ngil Toshkent. G’G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992. – 8-bet
4. Sevgi bilan g’olibman har on. Toshkent. “Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi”. “Niso poligraf”. 2020.-17-bet
5. “Sharof Rashidov hayoti xuddi Sovet Ittifoqining tug‘ilishi, oyoqqa turishi va cho‘kishiga o‘xshaydi” — tarixchi O‘zbekistonni 24 yil boshqargan rahbar haqida.Tarix bo‘yicha falsafa doktori Feruza Izzat YouTube”dagi “Qurultoy” loyihasidan
6. Yusupov Muhammad “Bag’ishlov” she‘ri. Telegram kanali [https://uz.tgstat.com/channel/@muhammad\\_yusuf\\_hayoti\\_va\\_ijodi](https://uz.tgstat.com/channel/@muhammad_yusuf_hayoti_va_ijodi)